

## FUTBOLCHILAR MAXSUS CHAQQONLILIGINING INFORMATIVLIGINI ANIQLASH

*Maxsumov Islomjon Adil o'g'li*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotation.** Determining the informativeness of the special agility of football players.

**Key words:** time to solve tactical problems, special agility, exercise complex, simple coordination, speed of movement, in unusual combinations.

Yosh sportchilarni tayyorlash samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik nazorat usullari bilan belgilanganligini ko'rsatdi. Biroq shunga qaramay, pedagogik nazorat sport mashg'ulotlari nazariyasini kam ishlab chiqilgan tomonlaridan biri hisoblanadi, bu ayniqsa bolalar va o'smirlar futboliga talluqlidir. Chaqqaonlikka kelsak, majmuaviy nazorat tizimida futbol uchun juda muhim sanalgan bu sifatini baholovchi ilmiy asoslangan testlar umuman yo'q.

Testning muhim xususiyati uning informativligidadir. Bu shuni anglatadiki, har bir aniq test o'zi baholashga qaratilgan sifatini yoki xususiyatni aniq baholaydi deganidir.

Bizning tadqiqotimizda yosh futbolchilarning maxsus chaqqonligining informativlig darajasi quyidagicha aniqlandi:

- 1) Har xil yoshdagi va malakaga ega futbolchilarni testlash natijalarini taqqoslash;
- 2) Har bir aloxida olingan testning maxsus musobaqa sharoitlarida to'p bilan o'yin harakatlarini bajarish samaradorligi koeffitsiyenti bilan bog'liqlilik miqdorini aniqlash.
- 3) Yosh futbolchilarning maxsus chaqqonligini o'lchashning turli usullarining obyektivligini baholash.

Testlarni tanlashda bunday puxta yondashish shunga bog'liqki, maxsus chaqqonlik testlari yosh futbolchilar uchun yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Informativli testlarning qo'lanilishi esa futbolchilarning o'quv-mashg'ulot va musobaqa faoliyati to'grisida ishonchli ma'lumot olishga imkon beradi. Bunday informativli testlardan foydalanish o'quv-mashg'ulot rejalarini tuzish va ularga tuzatishlar kiritishda o'quv mashg'ulot tayyorgarlik samaradorligini ancha oshiradi.

Yuqorida bayon qilingan qoidalarga muvofiq o'tkazilgan o'lchovlar va hisoblangan natijalar tajribadagi materialini olish imkoniyatini berdi, uning tahlili dissertatsiyaning mazkur bobida berilgan.

Chirchiq olimpiya zaxiralari koollejining 13-15 yoshidagi yosh futbolchilarning testlash natijalarining asosiy statistik tavsiflari 1. jadvalda berilgan

1- jadval

**13 yoshdagi yosh futbolchilar maxsus chaqqonligini testlash natijalarining  
o'rtacha statistik ko'rsatkichlari**

| F.I.SH. | To'g'ri chiziq bo'ylab 30 metrga yugurish (s) | Uchburchak tomonlari bo'ylab 4 ta ustunni aylanib o'tib, 30 m. ga yugurish (s) | 30 m. ga tekis va 30 m. ga uchburchak bo'ylab 4 ustunni aylanib o'tib yugurish farqi (s) | 30 m. ga to'g'riga to'pni olib yurish (s) | 30 m. ga to'pni olib yurish-30 m. ga to'g'riga to'pni olib yurish farqi (s) | 30 m. ga 4 ta ustunni aylanib o'tib to'pni olib yurish va darvozaga zarba berish | 30 m. ga to'pni olib yurish - 4 ta ustunni aylanib o'tib to'pni olib yurish va darvozaga zarba berish farqi (s) | To'pni o'ynatish (marta) | Taktik muammolarni hal qilishda ballar soni | Mushaklarni tabaqalashtirish aniqligi (sm) | Taktik muammolarni hal qilish vaqti, (s) |
|---------|-----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|---------------------------------------------|--------------------------------------------|------------------------------------------|
| 1       | 2                                             | 3                                                                              | 4                                                                                        | 5                                         | 6                                                                           | 7                                                                                | 8                                                                                                               | 9                        | 10                                          | 11                                         | 12                                       |
| 1       | 6,3                                           | 14,7                                                                           | 6,1                                                                                      | 7,2                                       | 0,81                                                                        | 6,7                                                                              | 1,3                                                                                                             | 36                       | 32                                          | 8,8                                        | 64                                       |
| 2       | 5,9                                           | 14,3                                                                           | 5,4                                                                                      | 6,9                                       | 0,69                                                                        | 4,7                                                                              | 1,6                                                                                                             | 23                       | 20                                          | 5,8                                        | 66                                       |
| 3       | 8,8                                           | 21,5                                                                           | 7,7                                                                                      | 9,8                                       | 0,53                                                                        | 7,2                                                                              | 1,4                                                                                                             | 32                       | 31                                          | 9,3                                        | 73                                       |
| 4       | 5,8                                           | 21,9                                                                           | 5,3                                                                                      | 6,9                                       | 0,51                                                                        | 4,7                                                                              | 0,8                                                                                                             | 23                       | 19                                          | 5,7                                        | 50                                       |
| 5       | 6,2                                           | 14,4                                                                           | 8,9                                                                                      | 10,4                                      | 0,74                                                                        | 6,4                                                                              | 0,8                                                                                                             | 37                       | 32                                          | 9,1                                        | 73                                       |
| 6       | 8,6                                           | 18,5                                                                           | 7,8                                                                                      | 6,7                                       | 0,52                                                                        | 4,8                                                                              | 0,9                                                                                                             | 23                       | 19                                          | 5,8                                        | 66,5                                     |
| 7       | 8,9                                           | 14,3                                                                           | 5,5                                                                                      | 6,9                                       | 0,52                                                                        | 6,3                                                                              | 1,1                                                                                                             | 38                       | 30                                          | 8,6                                        | 50                                       |
| 8       | 5,8                                           | 14,4                                                                           | 5,3                                                                                      | 6,8                                       | 0,81                                                                        | 5,2                                                                              | 1,2                                                                                                             | 32                       | 21                                          | 6,4                                        | 47,5                                     |
| 9       | 8,9                                           | 21,6                                                                           | 5,4                                                                                      | 10,2                                      | 0,52                                                                        | 7,1                                                                              | 1,5                                                                                                             | 30                       | 23                                          | 7,7                                        | 74                                       |
| 10      | 5,9                                           | 14,6                                                                           | 6,4                                                                                      | 6,8                                       | 0,51                                                                        | 4,7                                                                              | 1,1                                                                                                             | 32                       | 29                                          | 7,5                                        | 72                                       |
| 11      | 6                                             | 21,5                                                                           | 8,1                                                                                      | 6,7                                       | 0,73                                                                        | 7,1                                                                              | 1,3                                                                                                             | 23                       | 33                                          | 8,2                                        | 48                                       |
| 12      | 6,2                                           | 15,3                                                                           | 5,3                                                                                      | 10,2                                      | 0,54                                                                        | 4,7                                                                              | 1,6                                                                                                             | 40                       | 27                                          | 5,6                                        | 47                                       |
| 13      | 5,9                                           | 14,6                                                                           | 6,4                                                                                      | 6,8                                       | 0,51                                                                        | 4,7                                                                              | 1,1                                                                                                             | 32                       | 29                                          | 7,5                                        | 72                                       |
| 14      | 8,5                                           | 21,1                                                                           | 8,2                                                                                      | 6,8                                       | 0,53                                                                        | 7,5                                                                              | 1,3                                                                                                             | 24                       | 22                                          | 9,1                                        | 47                                       |
| 15      | 5,7                                           | 14,4                                                                           | 5,6                                                                                      | 6,7                                       | 0,52                                                                        | 4,8                                                                              | 1,4                                                                                                             | 33                       | 21                                          | 6,5                                        | 74                                       |
| 16      | 5,9                                           | 21,2                                                                           | 7,1                                                                                      | 6,8                                       | 0,77                                                                        | 6,8                                                                              | 1,3                                                                                                             | 24                       | 31                                          | 5,7                                        | 49                                       |
| 17      | 8,4                                           | 14,2                                                                           | 5,3                                                                                      | 9,8                                       | 0,52                                                                        | 4,3                                                                              | 1,3                                                                                                             | 33                       | 31                                          | 9,2                                        | 72                                       |
| 18      | 5,8                                           | 21,7                                                                           | 5,4                                                                                      | 6,6                                       | 0,54                                                                        | 5                                                                                | 1,2                                                                                                             | 35                       | 29                                          | 6,3                                        | 46                                       |
| X       | 6,92                                          | 17,62                                                                          | 6,40                                                                                     | 7,78                                      | 0,61                                                                        | 5,76                                                                             | 1,24                                                                                                            | 30,47                    | 26,47                                       | 7,37                                       | 59,94                                    |
| σ       | 1,36                                          | 3,49                                                                           | 1,27                                                                                     | 1,54                                      | 0,12                                                                        | 1,14                                                                             | 0,24                                                                                                            | 5,96                     | 5,22                                        | 1,46                                       | 11,90                                    |
| V, %    | 19,64                                         | 19,78                                                                          | 19,88                                                                                    | 19,85                                     | 19,60                                                                       | 19,74                                                                            | 19,54                                                                                                           | 19,56                    | 19,73                                       | 19,75                                      | 19,86                                    |

1-jadvalda 13 yoshdagi futbolchilarning asosiy statistik tavsiflari berilgan.

13 yoshdagi bolalarning testlaridagi natijalarining bir-biriga yaqin taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, 30 metr ga to'pni olib yurish va 4 ta ustunni aylanib o'tib 30 m ga yugurish va darvozaga zarb berish vaqti bo'yicha farqlar ko'rsatkichlarida natijalar bir xil:  $V, \% = 19,54$  xuddi shunga o'xshash tarqoqlik to'p o'ynashda aniqlandi:  $V, \% = 19,56$ . Bu ehtimol, mashg'ulotlarda kichik yoshdagi futbolchilar to'pni xis qilish tuyg'usini rivojlantiradigan shunga o'xshash mashqlarni bajarishlari, shuningdek, to'p bilan to'g'ridan-to'g'ri tezlashishi va to'pni ustunlarni orasidan tezlik bilan olib o'tib darvozaga zarba berish bilan bog'liq.

Ushbu guruhdagi o'rtacha tarqalish testda 30 metr ga tekis yugurish sifatida ko'rsatilgan  $V = 19,64\%$  ga teng. Ushbu mashq koordinatsiyaning murakkabligi nuqtai nazaridan ancha oddiy va chaqqonlikni talab qilmaydi. Taktik masalalarni yechishda ballardagi tarqalish biroz yuqoriroq,  $V = 19,73\%$ .

Va nixoyat nisbatan kichik tarqoqlik 30 metr ga to'g'ri yugurish va uchburchak tomonlari bo'ylab 4 ta ustunni aylanib o'tib 30 metr ga yugurish vaqti bo'yicha farq ko'rsatkichida aniqlandi,  $V = 19,88\%$ . Bu ko'rsatkich eng ko'p maxsus chaqqonlikning namoyon bo'lishi bilan bog'liq va shuning uchun yuqori tezlikdagi harakatlarda chaqqonlikni talab qiladigan testlarda yuqori variativlik (o'zgaruvchanlik) mavjud.

Taktik fikrlashni baholashda vaqt o'zgaruvchanligi yuqori, bu yosh futbolchilar guruhida  $V = 19,86\%$ . Bizning fikrimizcha, bu juda mantiqan to'g'ri, chunki bu yoshda o'quv-mashg'ulotining maqsadlari bilan bog'liq holda, murabbiylar mashg'ulotlarning bu tomoniga kamroq e'tibor berishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Нуримов Р.И. Контроль специальной ловкости футболистов Фан-Спортга илмий назарий журналда 2021. №2 с 8-10.

2. Makhsumov Islomjon Adilovich. Control of special agility of football players of children's young teams using expert estimates.// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. ISSN 2749-0866 Vol.1 Issue 1.5 Pedagogic sciences. - Germany Berlin 2021. - pp. 448-452.

3. Махсумов.И.А. Развитие ловкости юных футболистов с учётом возрастных особенностей организма.// Международная научно-практическая конференция Современные научные решения актуальных проблем. Сборник тезисов научно практической конференции Россия г. Ростов-на-Дону 2021 г. DOI

4. Махсумов.И.А. Определение зависимостей между показателями ловкости футболистов в процессе комплексного контроля.// Фан-спортга. – Чирчик, 2021. №3. - Б. 20-22.

5. Махсумов.И.А. Оценка тренировочных нагрузок по показателям специальной ловкости. // Фан-спортга. – Чирчик, 2020. №4. - Б. 58-60.

6. Махсумов.И.А. Оценка объективности разных способов измерения ловкости юных футболистов.// European journal of science archives conferences series/ Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive. – Aachener, Germany 2022. - Б. 88-90.